



**Tog`ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida
milliy madaniy xususiyatlarning aks etishi**

Bobojonova Ibodatxon Umidbek qizi

Urganch davlat universiteti, Filologiya
va san'at fakulteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada badiiy asarlarda milliy madaniyatimiz, an'analarimizning aks etishi va uning lingvokulturologiyadagi ahamiyati haqida so`z boradi.

Tayanch tushunchalar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy birliklar, til, milliy madaniyat.

Ma'daniyat inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Madaniyat — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsada, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta.

Milliy madaniyat badiiy asarlarda avvalo til orqali aks etadi. Milliy madaniy xususiyatlarning badiiy asarlarda aks etishi xalqning tarixi, an'analari, urf-odatlarining asarlarda ifodalash orqali yuzaga keladi. *Ramzlar, lakunalar, stereotiplar, mif, o'xshatishlar maqol, matallar* va shu kabi bir qator birliklarni madaniy birlik sifatida aytishimiz mumkin. Bunday birliklar **lingvomadaniy birliklar** termini asosida shakllanadi. **Lingvokulturologiya** fani doirasida o'rganiladi. **Lingvokulturologiya**-til va madaniyatning o'zaro uyg'unligi asosidagi soha hisoblanadi. Til- bu milliy madaniyatimiz



mavjudligi va irodasining asosiy shakli bo'lib, u madaniy bilimlarni to'plash va madaniyatni ko'rsatuvchi shakl sifatida namoyon bo'ladi. V. A. Maslova fikricha : “Til-bu madaniyatning tarkibiy qismidir.” Milliy madaniyatimizni til orqali avloddan avlodga yetkazamiz. Bugungi kunda xalqning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, madaniyatini tasvirlashda xususan uning taraqqiy topishiga badiiy asarning ham o'рни muhim, albatta. Ayniqsa mustaqillikdan so'ng milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni tiklash, uni yosh avlodga yetkazish maqsadida bevosita kuzatgan marosimlar, udumlarni o'z yurti haqidagi rivoyat-u afsonalar asarlarga singib ketdi. Jumladan, yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida ko'plab madaniyatimiz bilan bog'liq voqealarni kuzatishimiz mumkin. “Oydinda yurgan odamlar” qissasi barchamizga tanish. Bu asar hayot qiyinchiliklariga yuz tutgan ikki taqdir haqida desak yanglishmagan bo'lamiz. Asarda Qoplonbek va Oymomoning to'y marosimlari shunday mahorat bilan tasvirlanganki, o'zbek millatining milliy madaniy xususiyatlari, qadriyatlari, rasm-rusumlari mohirlik bilan yoritilib berilgan. Bilamizki to'y marosimi sharq xalqlarida qadimdan shakllangan urf odatdir. Asarda ham ushbu qadimiy urf-odatimiz aks etgan. *To'y bozor oqshomi bo'ldi. To'yga ayta-ayt bo'ldi. Qizlar kelin tarafga aytdi, bo'zbolalar kuyov tarafga aytdi.*(*Oydinda yurgan odamlar 11-bet*) Undan tashqari to'y jarayonidagi rasm-rusumlar, odatlarning ham guvohi bo'lishimiz mumkin. *It g'irillatar, kampir o'ldi, soch siypatar, qo'l ushlatar bo'ldi. Oyna ko'rsatar baridanda zavqli bo'ldi, baridanda gashtli bo'ldi* (“*Oydinda yurgan odamlar*”17-bet)

Asarni kuzatar ekanmiz kommunikativ niyatning maqollar orqali yetkazib berilishinining guvohi bo'lamiz.

-Endi bilasan-da.Aytganimdan qolma.Chiroying borida chinoringni top! (“*Oydinda yurgan odamlar*” 9-bet) Yanga va qiz o'rtasidagi bu suhbatda maqol orqali ko'zda tutilgan. So'zlovchining kommunikativ niyati: “Yoshlik vaqtingda o'z tengingni, jutftingni top keyin attang qilib yurmagin.” degan ma'noni nazarda tutganini anglashimiz qiyin emas.

-Sen qatorilar bolali bo'ldi,-dedi otasi,-O'g'li borning o'zi bor, qizi borning izi bor. Yozuvchining ushbu maqol orqali yetkazib bermoqchi bo'lgan niyati: “Qachongacha



befarzand yurmoqchisan? O`g`ling yoki qizing bo`lmasa sening bu dunyoda qoldiradigan izing ham bo`lmaydi.” Kabi ma`no anglashimiz mumkin.

-Umr o`tayapti. Bo`laringda bo`lib o`t bo`z yo`rg`aday yelib o`t.(“Oydinda yurgan odamlar”35-bet) Ushbu maqolda esa birinchi maqolaga ishora qilyapti.Ya`ni, hozir farzand uchun yoshligingda qayg`urgin, bo`z yo`rg`a kabi bo`lgin degan o`xshatish orqali o`z niyatini yetkazib bermoqchi.

*Olisdagi palovdan yaqindagi sho`rva yaxshi* (Oydinda yurgan odamlar 37-bet) Ushbu maqolda uyingga yaqin bo`lganing tug`ilib o`sgan diyoringda yurganing yaxshi emasmi degan kommunikativ niyati bilib olishimiz mumkin.

Elakka bormish ayolning ellik og`iz gapi bo`ldi (“Oydinda yurgan odamlar”62-bet) Maqolda ayollarning biror narsaga deb ketib g`iybat, gapga berilib ketishi haqida mohirlik bilan ko`rsatib berilgan.

*Bedana tezotar bo`lsa,o`z boshini o`zi yoradi.* Maqol orqali kimki tezaki bo`lsa o`zining boshiga yetadi degan ma`noni anglashimiz mumkin. (“Oydinda yurgan odamlar”87-bet)

Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi (“Oydinda yurgan odamlar”87-bet) kabi ko`plab madaniyatimizga xos bo`lgan birliklarni uchratamiz.

Milliy madaniyatimizni ko`rsatib beruvchi atlas matosi haqidagi jilvador jummalarni ham ko`rishimiz mumkin. *Elimiz kamalakni matoga ko`chirdi. Oti atlas bo`ldi...Atlasda o`ziga loyiq rangi bo`ldi, rangiga loyiq nomi bo`ldi: Sakkiztepkilik, Marg`ilon xonatlas, Samarqand oqshomi, Marg`ilon mash`ali, Farg`ona yo`llari, Layli, Guli, Shirin, Mahliqo, Shotikapak, Shodiqara, Qo`chqorshoxi, Tiri kamon, Oltin kalit...* (“Oydinda yurgan odamlar”17-bet) Shu kabi birgina atlas matosining o`n to`rtta turini sanab o`tgani, unga juda chiroyli ta`riflar berilgan.

Undan tashqari o`zbek folklorining yorqin namunalaridan alla, sog`im qo`shig`i “Turey-turey” “Kelin salom” va aza qo`shig`ini uchratamiz . Yozuvchi bu folklor namunalari orqali insonlarning hayot tarzini mahorat bilan tasvirlagan.



Dasht-u dalada uzum, alla-yo, alla-yo,

Uzganimni kim bilar-a, alla-yo, alla-yo,

Hasrat-u armon bilan, alla-yo, alla-yo,

Jon berganimni kim bilar-a, alla-yo, alla-yo (“Oydinda yurgan odamlar”141-bet)

Alla- onaning bolaga boʻlgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglatish bilan birga ruhiy kechinmalarini ham ifodalab aytadigan, bolani uxlatish jarayonidagi qoʻshiq

Osmondagi yulduzday,

Qoshi qora qunduzday,

Dili oydin kunduzday –

Qaynonamga salom! (“Oydinda yurgan odamlar”29-bet)

Kelin salom - kelin ta’zim bilan egilib qaynota va qaynonasiga salom qiladi, ular salom javobini berib, kelinning boshiga koʻrmana qoʻyadilar. Soʻng kuyovning aka-ukalari qarindosh va yaqinlari navbat bilan kelib, dasturxonchi qoʻliga koʻrmana beradilar.

Qoʻy sogʻaman qoʻshoqda, turey-turey,

Qoʻy ishq menga yoqqan, turey-turey,

Qoʻy sutini ichganlar, turey-turey,

Kundan-kun shifo topgan, turey-turey (“Oydinda yurgan odamlar”78-bet) kabi koʻplab milliy madaniy fondlarimizni guvohi boʻlamiz.

“Turey-turey” bu chorvachilik qoʻshigʻi hisoblanadi.

Oʻzbek milliyligining ramzi boʻlmish milliy liboslarning ham aks etishini guvohi boʻlamiz.



Oyog`ida baland poshnali g`archillama etik bo`ldi. Yelkasida beqasam, belida shoyi belbog`i bo`ldi. Boshida qo`qoncha do`ppi bo`ldi.(Oydinda yurgan odamlar 15-bet)

Yuzlarida oppoq harir bo`ldi. Boshida ipak ro`mol bo`ldi.

Egnida beqasam kamzul, atlas ko`ylak bo`ldi. Oyoqlarida kavush bo`ldi.

Kelin peshonasida tillaqosh bo`ldi.

Tillaqosh jimjimador ko`zlari yorug`da yalt-yalt etdi.

Quloqlarida zirak bo`ldi. Ko`kraklarida sakkiz kumush ni- shonli zebigardon bo`ldi. (Oydinda yurgan odamlar 15-bet)

Undan tashqari o`zbek millatiga xos bo`lgan udumlarning chiroyli tarzda yoritilib o`tganini ham ko`rishimiz mumkin.

Nikoh o`qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam yelkasidan igna bilan ip o`tkazib-ip o`tkazib oldi.

Bu kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin, dcgani bo`ldi.

Ip uchlarini tugmadi.

Kelin-kuyov taqdir-peshonasi tugilmasin, deya shunday qildi.

Hamisha bug`doyday serob bo`lsin, bola-chaqali bo`lsin, deya, kuyov boshi uzra bir hovuch bug`doy sepdi.(Oydinda yurgan odamlar 15-bet)

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak milliy madaniyatimizning badiiy asarlarda aks etishi, avvalo, xalqning an`analari, urf-odatlarini, udumlarini asarda ifoda etish orqali yuzaga keladi. Xalq, albatta, o`zining urf-odatlarini, ota-bobolaridan qolgan an`analari bilan xalqdir. Biz bu bitmas tunganmas boyligimiz bo`lmish milliy an`analar, qadriyatlarimizni asramog`imiz lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog`ay Murod. Oydinda yurgan odamlar [matn]: qissa / T. Murod. – T.: „Ziyo nashr“ Nashriyoti, 2019 – 160 b.
2. Sh. Usmanova. Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent, 2019. 248 b
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>